

MILLIY MADANIY KONNOTATSIYANING O'XSHATISHLARDA AKS ETISHI

Turakulova Umidaxon Anvarovna,

University of Business and Science

Til va adabiyot ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi

Gmail: standoffabu202@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Tohir Malik qissalarida qo'llangan o'xshatishlar, ularda aks etgan milliy madaniy konnotatsiya, tanlangan etalonlar, o'xshatishlarning leksik-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'xshatishlar, it etalon, lingvomadaniy qarashlar, xalqning olam haqidagi tasavvurlari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются сравнения, использованные в повестях Тохира Малика, их лексико-семантические и лингвокультурные особенности, а также отражённые в них национально-культурные коннотации и выбранные эталоны.

Ключевые слова: сравнения, эталоны, лингвокультурные представления, народные представления о мире.

ABSTRACT

This article analyzes the similes used in the stories of Tohir Malik, the national cultural connotations reflected in them, the selected standards (etalon), as well as the lexical-semantic and linguocultural characteristics of the similes.

Keywords: similes, dog as a standard (etalon), linguocultural perspectives, people's perceptions of the world.

KIRISH

Ma'lumki, o'xshatishlar inson ongi taraqqiyotida muhim o'ringa egadir. Chunki u, avvalo, kognitiv amaliyotdir. Bunga qisqagina izoh yetarli, bizningcha: inson o'zini o'rab turgan olamda notanish bo'lgan narsa-hodisalarni o'zigi tanish bo'lgan narsa-hodisalarga qiyoslagan, o'xshatgan holda o'zlashtira boradi. Inson jonivorlardan tashqi voqelikdagi predmet va hodisalarni o'xshata olishi bilan farq qilishi va o'zining dastlabki bilimlarini o'xshatishdan olgani xususidagi qarashlar antik davrdan mavjud. Kognitiv amaliyotning voqelangan ko'rinishi – lisoniy hodisa sifatidagi o'xshatishlar nafaqat badiiy adabiyotda, balki, ijtimoiy hayotda ham muhim

ahamiyat kasb etadi. Turli xalqlarning madaniyati, urf-odatları, qarashlarini o'zida aks ettirishda ham ularning xizmati katta.

ADABIYOTLAR TAHLILI

“O'xshatishlar semantikasidagi baho munosabatlarini aniqlash milliy-madaniy konnotatsiyaga oydinlik kiritadi” [1, 816]. Konnotatsiya ma'lum bir xalqqa mansub bo'lgan konnotativ ma'no bo'lib, uni faqat o'sha xalq vakillarigina anglay oladi.

O'xshatishlarda milliy-madaniy konnotatsiyaning aks etishini T.Malik asarlarida ham ko'plab kuzatish mumkin. *Hozirgi xabarni eshitib, o'zining o'g'li boshiga humo qushi qo'nganday quvondi* [2, 8]. Keltirilgan badiiy parchada qo'llangan *humo qushi qo'nganday* o'xshatishida milliy-madaniy konnotatsiya aks etgan. Manbalarda aytilishicha, “*humo* so'zi semurg' qushining yana bir nomi bo'lib (semurg' qushining o'nga yaqin nomlari bor), u sharq xalqlari, jumladan, o'zbek xalq ertaklari va afsonalarida ham baxt keltiruvchi, yaxshilik keltiruvchi, murodi maqsadga yetkazuvchi afsonaviy qush sifatida gavdalanadi” [3]. Har bir xalqning lingvomadaniyati o'sha xalqning yashash sharoiti, iqlimi, hududi, o'zida mavjud bo'lgan hayvonot va o'simlik olamini ham ifoda etadi. Sababi, avval ham aytganimizdek, shaxs uchun bilingan, tanilgan har qanday hodisa uning uchun bilim hisoblanadi. Sh.Uusmonova buni o'zbeklarda sochni tunga qiyoslanishi, shotland xalqida esa qarg'aga qiyoslanishi, chunki Shotlandiyada yilning hamma faslida ham qarg'aning bo'lishi bunga asos bo'lganligini, tabiiy sharoitida qor yog'ishi kuzatilmaydigan lingvomadaniyatlarida “*qorday oppoq soch*” o'xshatishi uchramasligi, buning sababi esa ular qorning nimaligini ko'z oldiga keltirolmasligini, bu holat biror-bir oq narsa ularning yodiga qorni solmasligini ta'kidlaydi [4, 108].

Professor N.Mahmudov konnotatsiya haqida fikr yuritib shunday deydi: “Leksemadagi konnotativ ma'no yorqinlashgani sari undagi denotativ ma'no pasayib boradi. Konnotatsiya leksema mazmunidan o'rin olib, so'zlovchining subyektiv munosabati bilan bog'liq holda shakllanib boradi” [5, 120]. Buni sodda tilda tushuntiradigan bo'lsak, masalan, *musichaday beozor* o'xshatishi eshitgan odam musicha haqida o'ylamaydi, suhbat mavzusi bo'lgan shaxs haqida o'ylay boshlaydi. O'zbek xalqining milliy nigohida musichaning beozorlik timsoli ekanligi turg'unlashib, quyma shakl darajasiga kelgan.

Bir tilga mansub har qanday so'z ham milliy-madaniy konnotatsiyani hosil qilavermaydi. “So'z ma'nosining madaniy komponenti har bir so'zda turlicha bo'lishi mumkin. Bu holat so'zning qanday milliy madaniy mohiyatga ega narsa – predmet, voqea – hodisa kabilarni nomlab kelayotgani bilan aloqador” [6, 91]. Misol uchun, *uloq* so'zi kontekstdan tashqarida hech qanday emotsional-ekspressiv va hissiy

bahoni ifadalamaydi. Shunchaki echkining bolasini ifodalaydi. Shuning uchun bu soʻz madaniy konnotatsiyani hosil qilmaydi.

Turli lingvomadaniyatlar uchun har xil oʻxshatish meʼyoriy oʻlchov boʻlishi, bir xalqning mental anʼanalarini boshqa bir xalq rad etishi mumkinligi koʻp tilshunoslar tomonidan taʼkidlangan (N.Mahmudov, Sh.Usmonova). Masalan, oʻzbeklarda xushbichim qomatli ayollarga *sarvday*, turklarda gavdali ayollarga *at gibi* oʻxshatishi qoʻllaniladi. Hindlarda sohibjamol qizning yurishi filning ulugʻvor va mahobatli qadam tashlashiga muqoyasa qilinadi [4, 106]. Bunga oʻxshash misollar juda koʻplab tadqiqotchilar tomonidan oʻrganilgan. Turli xalqlarning mental anʼanalari kesishgan holatlar ham boʻlib, bunda bir oʻxshatish etaloni boshqa bir xalqda ham xuddi shu semali etalon vazifasini bajarishiga ham misolar keltirish mumkin. Bu haqda N.Mahmudov oy etalonini oʻzbek, koreys, xitoy tilida ifodalaydigan maʼnosini sharhlash bilan [5, 174], Sh.Usmanova esa oʻzbek tilida mavjud boʻlgan *toshbaqadek imillamoq* oʻxshatishidagi etalonning xuddi shu maʼnoni ifodalaydigan “*toshbaqa minmoq*” iborasining koreys madaniyatida ham borligini muqoyasa qilgan [4, 106].

Milliy-madaniy konnotatsiya haqida gap ketar ekan, I.Mirzaaliyev oʻzining “Oʻzbek tilida milliy madaniy konnotatsiyaning ifodalanishi” nomli maqolasida quyidagi fikrlarni bildirgan: “Madaniy konnotatsiyalarda milliy ong, milliy tafakkur va dunyoqarash oʻz ifodasini topadi. Bunday birliklar til egalarining milliy-madaniy qarashlarini, voqelikka munosabatni ham aks ettiradi. Masalan, oʻzbek tilida *doʻppisini osmonga otmoq* iborasi konnotativ maʼno ifodalash bilan birga, milliy-madaniy qadriyatlar (oʻzbek xalqining doʻppi kiyish madaniyati, xursandchiligi vaqtida doʻppisini olib osmonga otishi kabilar) bilan aloqador birlik hisoblanadi.” [6, 90]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuni yoritishda tavsiflash, qiyoslash va lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tohir Malikning asarlarida qator oʻxshatishlar va ularda aks etgan konnotatsiyalarni kuzatdik. Jumladan, *it* etaloni bilan bogʻliq oʻxshatishlar juda koʻp oʻrinlarda uchraydi. Tohir Asardagi ayni oʻxshatishlarni tahlil qilganimizda ularning barchasi salbiy holatni aks ettirish uchun qoʻllanganiga guvoh boʻlindi. Oʻylab qaralsa, oʻzbek millati mentalitetida *it* bilan bogʻliq qarashlar ikki koʻrinishda aks etadi. *Itga* nisbatan ham salbiy, ham ijobiy munosabat shakllangan. Ammo oʻzbek mentalitetida ijobiy tasavvurga qaraganda salbiy tasavvurning oʻrni kengroq.

Bundan tashqari oʻzbek xalq maqollarida ham *it* bilan bogʻliq bir qator oʻrinlar bor: *Yaxshi it oʻligini koʻrsatmas; Toyni ot qilguncha, Egasi it boʻlar; Huragʻon it*

egasiga qo'noq keltirar; So'z bilmagan kishidan hura bilgan it yaxshi (O'XM) bunday maqollarni ko'plab keltirish mumkin. Ularda aks etgan semalar esa, salbiy va ijobiylikni ifodalagan, ammo shuni ham aytib o'tish joizki, o'rganilgan o'xshatishlarning hammasida *it* salbiy bo'yoqni aks ettirish uchun xizmat qilgan. Quyida ana shunday o'xshatishlar tahlili bilan tanishtiriladi: *Bundan tashqari xonasiga kiruvchini it kabi qopadigan rahbar-u rahbarchalarga azaldan tob-u toqati yo'q* [7, 99]. Ushbu parchada *it kabi qopadigan* o'xshatishidan foydalanilgan bo'lib, insonga xos bo'lgan eng qo'pol muomalani tasvirlash uchun qo'llangan. Ayni o'xshatish shaxsning nutqiy holatini ochib berish uchun qo'llangan. Bu o'rinda o'xshatish *jerkib, urushib gapirmoq, dag'al gap bilan dilini og'ritmoq* kabi semalarni o'zida jamlamoqda. Qopish it va tuyaga xos bo'lgan xususiyat bo'lib, tuyaga qaraganda itning qopishi hamma uchun ayon holat. Tuyaga nisbatan itni yaxshi tanish bu o'xshatishning tuyadek emas, itdek qopmoq holida yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Qopag'on itning qopishi uchun unga teginish shart emas, o'xshatishda ayni shu xususiyati bilan ba'zi rahbar shaxslarning o'z xodimiga qiladigan muomalasiga ishora bor. O'xshatishlar uchun qaysi predmet yoki shaxs, voqea, umuman nima bo'lishidan qat'i nazar, undagi eng ustun xususiyatga e'tibor qaratiladi. Ana shu ustunlik etalon vazifasini bajarishga xizmat qiladi. O'zbek xalqi mentaliteti uchun it bilan bog'liq etalonlarning tanlanishiga, eng avvalo, undagi qopish, hurish va xorlik xususiyati turtki bo'lgan.

Ha, mayli, qo'yavering. Ular itga o'xshab huraverishadi, – dedi. – Nima bo'lsa bo'ldi! Kunimiz shunday to'ng'alarga qolganidan keyin nima qilardik (7, 237). Bu matnda ham yuqoridagi misolga o'xshash ma'no ifodalanmoqda, o'xshatish tarkibidagi hurishda inson nutqiga ishora bor. *Huraverish* leksemasida esa *besamar, mazmunsiz, bir gapni ko'p takrorlash* kabi semalar aks etadi. Mazkur o'xshatish sanalgan semalar bilan birga *suhbatdoshining gapini nazarga ilmaslik, e'tibor bermaslik* kabi ma'nolarni ham tashimoqda.

Bu qiztaloqlar pichanga bog'lab qo'yilgan itga o'xshashadi. O'zlari ham yeyishmaydi, birovga ham bergilari kelmaydi (7, 166). Ushbu parchada qo'llangan o'xshatish erkin o'xshatish bo'lib, etalonga sifatlovchi bo'lib kelayotgan qism o'xshatishning mazmunini yuqori darajaga ko'tarib berishga xizmat qilgan. Hammaga ma'lumki, it go'shtxo'rlar sirasiga kiradigan hayvon. Shuning uchun unga o'txo'rlarning ozuqasi berilmaydi. O'xshatishda ifodalangan *pichanga bog'langan it* ba'zi shaxslardagi qizg'anchilik, baxillik kabi xarakter nuqsonlarini ochib berish uchun qo'llangan. Itdagi xususiyat: oldidagi yemishini begona it bilan yemaydi, ammo yemishdan boshqa narsa bo'lsa ham, uni qattiq qo'riqlaydi. Mazkur

o'xshatishda qo'riqlash semasi bor deyishdan yiroqmiz. Unda aks etgan *boshqa bir shaxsga to'sqinlik, qarshilik qilish* semalarini anglash mumkin.

It bilan bog'liq o'rinlarda konnotatsiyaning namoyon bo'lishi, asosan, salbiy bo'yoqni ifodalashda ko'zga tashlanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga murojaat qilganimizda buni yaqqol ko'rish mumkin. It. 1. Uy-ro'zg'orni qo'riqlash, ovlash va shu kabi maqsadlar uchun saqlanadigan uy hayvoni. 2. Shu hayvonga nisbatlanuvchi haqoratni bildiradi: it emgan, itvachcha, itdan tarqagan. 3. Ko'chma ma'noda. Birovning manfaatlarini himoya qilib boshqalarga zulm o'tkazuvchi odam. Boshiga it kunini solmoq, it azobi, it tekkan, it boqmaydi (varianti: *it ham qaramaydi* nazardan qolgan ma'nosida), itdan suyak qarz (*hammadan qarzi bor hatto itdan ham ma'nosida*), itning keyingi oyog'i, ichini it tatalamoq, Kambag'alni tuyaning ustida ham it qopadi (O'TIL, II, 241).

Yuqorida aytib o'tilganidek, milliy-madaniy konnotatsiya xalq tafakkurining aksi, dunyoqarashining ifodachisi sifatida xizmat qilar ekan, o'zga millat vakillarining qarashlari va milliy nigohi bilan ziddlikni hosil qilishi mumkin. Idrok intizomini xuddi shunga o'xshash ko'rinishini koreys tilshunosi Park Gap Su (박갑수)yapon va koreys tillari misolida shunday izohlaydi: "Koreys tilini juda yaxshi biladigan yaponiyalik bo'lsa ham, koreys madaniyati uchun begona bo'lgan faqatgina yapon milliy-madaniy konnotatsiyasiga ega bo'lgan iborani qo'llasa, tabiiyki, koreyslar buni tushunmaydi. Masalan, yapon tili sohibi xona mushuk peshanasidek ekan iborasini koreys tilida aniq-tiniq ifodalasa ham koreyslar uni tushuna olmaydi. Chunki, koreys lingvomadaniyatida "kichik, tor (joy)" ma'nosini ifodalash uchun mushuk peshanasidek o'xshatishi ishlatilmaydi. Xuddi shunga o'xshash koreys tiliga xos bo'lgan *yo'lbarsdek o'qituvchi* yoki *tulkidek xotin* o'xshatishlarini boshqa madaniyat vakillari maxsus madaniy-nazariy bilimlarsiz to'g'ri tushuna olmaydilar" [8, 17]. Binobarin, koreys milliy madaniyati va idrok intizomiga xos bo'lgan *yo'lbarsdek* o'xshatishining neytral "qattiqqo'l" hamda *tulkidek* o'xshatishining "aqlli" ijobiy konnotatsiyalari boshqa madaniyatlar uchun begonadir [8, 17]. Demak xalq o'xshatishlarni shunchaki qo'llamaydi, o'z qarashklari va tasavvuridan kelib chiqib qo'llaydi. It o'zbek millati tasavvurida, asosan, salbiy obraz sifatida gavdalanadi va u qo'llangan o'rinlar kelishmovchilik, qaysarlik, badjahillik kabi holatlar aks etadi. Islom dinida uyning ichida it boqish harom hisoblanadi. Shuning uchun ham xalqimiz mentalitetida inson va hayvonlarning yashash joyi alohida bo'lishiga qattiq e'tibor beriladi. Shu bilan birga qadrdon do'st bo'lsa ham, inson bilan hayvonning birga yashashini qabul qilib bo'lmaydi. Garchi it, mol, eshak kabi uy hayvonlari insonlarga yaqin bo'lsa-da, inson va hayvon o'rtasida katta masofa mavjud. Insoniyat bu hayvonlardan o'zining ehtiyojlari uchungina

foydalanadi. Qizig'i, bir-birlarini haqoratlaganida ham ushbu hayvonlar nomlaridan keng foydalanishadi. O'zbek lingvomadaniyatida *itdek, moldek, eshakdek* kabi salbiy ottenkali o'xshatishlar talaygina. Umuman olganda, yuqoridagi hayvonlarning ijobiy tomonlaridan ko'ra salbiy xususiyatlari ko'proq kontekstga ko'chiriladi.

Rus xalqi mentalitetida shaxsga nisbatan quyon, ayiq, tulki kabi o'xshatishlar keng tarqalgan bo'lib, ular qatorida *it* etaloni bilan bog'liq o'xshatishlar ham alohida o'ringa ega. Rus lingvomadaniyatida *it* bilan bog'liq ko'plab iboralar ham paydo bo'lgan. Bu xalq uchun itdagi sadoqat xususiyati unga oid qarashlarda salbiy o'lchovga qaraganda ijobiylari ancha mustahkamligi uchun omil bo'la olgan. *Собака – преданный друг человека* (*It insonning sodiq do'sti*) maqoli eng mashhur maqollardan biri. Ammo *it* bilan bog'liq iboralarda, asosan, kuchli salbiy baho ham aks etadi.

Ko'rinib turibdiki, *it* bilan bog'liq o'rinlar barcha xalqlar madaniyatida ham ijobiy, ham salbiy ko'rinishda o'z ifodasini topmoqda. E'tiborlisi shundaki, o'zga xalqlar madaniyatida *it* bilan bog'liq ijobiy, o'zbek mentalitetida esa salbiy tasvirlar uchun qo'llanishi ustunlik qilmoqda. Buning sababi muqaddas dinimizga aloqador bo'lgan hadislardir. D.Tosheva o'zining "Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari" nomli dissertatsiyasida ham *it* komponentli maqollarga alohida to'xtalib, *it* qatnashgan maqollarda aks etgan qator kontseptlarni tahlil etadi. Ularda: *sadoqat, pastlik, no'noqlik, nasl, odat, makon, nasl, fe'l-atvor, orqa qilish, oriyat, ozodalik, birlik, yo'lini topish, ziqnalik, yosh, harakat, ojizlik, mashaqqat, me'yordan oshish, no'noqlik* kabi yigirmadan ortiq kontseptlarda namoyon bo'lishi haqida ta'kidlaydi. Sanalganlar orasida *sadoqat, odat, zamon, harakat, oriyat, ozodalik, birlik, yosh* kabi kontseptlarda *it* bilan bog'liq ijobiy kontseptlarni uchratish mumkin [9, 75].

Milliy-madaniylik tushunchasi mentallik va mentalitet tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, u haqida N.F.Aliferenko "Linguocultural nature of mentality" maqolasida quyidagicha fikr bildiradi: "Mentallik – dunyoni anglash jarayonida vujudga kelsa, mentalitet – muayyan xalq tomonidan yaratilgan dunyo manzarasi sanaladi. Shunday ekan, xalqning mental xususiyatlari tilda o'z aksini topadi. Demak, muayyan millat madaniyati va mental xususiyatlarini o'rganish uchun uning tilini tadqiq etish maqsadga muvofiq" [10, 16].

O'zbek xalqi uchun sigir, qo'y, ot va shunga o'xshash uy hayvonlari qay darajada qadrli bo'lsa, rus va ingliz xalqlari uchun *it* va mushuk shunday qadrlidir. Uy hayvonlaridan birining kasallanishi uning egasi uchun og'ir holat, ya'ni u tuzalguniga qadar veterinar maslahatlariga ko'ra tuzalishiga yordam beradi. Ammo itda shunday hol kuzatilsa, aksincha, o'z holiga tashlab qo'yiladi. Bejizga o'zbek

xalqida: “Ot qarisa – oxurda, it qarisa – chuqurda” (O‘XM) deyilmagan. Aslida, bu maqol majoziy ma’noda qo‘llangan bo‘lsa ham ot va itga bo‘lgan munosabatimiz o‘z aksini ko‘rsatib turibdi. Umri davomida odamlarga yaxshilik qilib kelgan odamning qarigan paytda e‘zozdaligi otga, boshqalarga yomonlik qilgan odamning qarigan paytidagi hurmatsizlik itga qiyoslanmoqda. Mentalitetimizdagi itga bo‘lgan ba’zi o‘rinlardagi bee’tiborlik quyidagi o‘xshatishda ham o‘z aksini topgan:

Yuqorida qator o‘xshatishlar anglatayotgan semalar tahlilga olindi. Aytish joizki, o‘zbek millati mentalitetida it bilan bog‘liq ko‘plab o‘rinlarda insonlarga nisbatan eng salbiy holatning eng oxirgi nuqtasini ochib berishda keng foydalanish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu hol, ayniqsa, paremiologik birliklarda ko‘rinadi. Misol sifatida *It dan suyak qarzi bor* (O‘XM) hammadan qarz, hatto itdan ham qarzi bor ma’nosida, “It ham boqmaydigan” nazardan qolgan, hatto it ham qaramaydi ma’nosida. “Itning keyingi oyog‘i” hammadan oxirida hatto itdan ham ma’nosida. Bunday iboralarning semalari tahlil qilinganda kuchaytiruv-ta’kid yuklamasining qo‘llanishi fikrimiz isboti uchun xizmat qiladi. Iboralarni “It dan suyak qarzi bor”, “It boqmaydi” holida kuchaytiruv-ta’kid yuklamalarisiz qabul qiladigan bo‘lsak, iboralardagi emotivlik pasayadi, chunki it o‘zbek mentalitetida shaxsga nisbatan qo‘llanadigan salbiy bahoning eng quyi bosqichi sifatida gavdalanadi. Kuchaytiruv-ta’kid yuklamasining *it* so‘zidan keyin qo‘llanishi (*“It dan ham suyak qarzi bor”, “It ham boqmaydi” tarzida*) itning xorlik va pastlikning eng og‘ir ko‘rinishini aks ettiruvchi hayvon sifatida ko‘zga tashlanadi.

“O‘xshatishlarni lingvomadaniy tahlil qilish o‘xshatishlar semantik strukturasiga joylangan madaniy axborotni aniqlash o‘xshatish etalonlarining milliy-madaniy konnotatsiyaga oydinlik kiritish demakdir. Ular millatning obrazli tafakkur maxsuli, shu madaniyatda qabul qilingan me’yorlarning aks ettiruvchisidir” [11, 50]. Har qanday shaxs o‘z dunyosini turli belgilar bilan to‘ldirib, rivojlantirib boradi. Buning asosiy sababi yangilikni ixcham ko‘rinishda yetkazish, tejamlilikka intilishda deb qarash mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘xshatishlarda namoyon bo‘luvchi milliy-madaniy konnotatsiya xalq qarashlarining ko‘zgusidir. Turg‘un o‘xshatishlarga xalqning qadimiy urf-odatlarini, milliyligini yodga solib turuvchi noyob manba sifatida qarash mumkin. Shunday turg‘un o‘xshatishlar ham borki, ular butun bir dostonni yodga soladi, masalan, Alpomishdek yigit o‘xshatishi orqali “Alpomish” dostoni, uning bosh qahramoni uning jasorati, mardligi, bir so‘zliligi, tashqi ko‘rinishi kabi bir qator holatlarga ishora bor. Demak, milliylikni ifodalaydigan har qanday turg‘un o‘xshatishda konnotatsiya mujassamlashgan bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Eshmuminov A., Xursandova K. Individua-muallif o'xshatishlari va konnotatsiya (Nazar Eshonqul hikoyalari misolida) // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Toshkent, 2023. – B. 816.
2. Тоҳир Малик. Имтиҳон. – Тошкент: ЎзМК, 2015. – Б. 8.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Semurg%CA%BB>.
4. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. – B. 108.
5. Маҳмудов Н. Тил сиёсати ва сиёсат тили... // Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2017. – Б. 20.
6. Мирзаев И. Ўзбек тилида миллий маданий коннотациянинг ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2020. – № 2. – Б. 90.
7. Тоҳир Малик. Шайтанат (қисса). 3-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2013. – Б. 99. (keyingi shu manbalardan olingan o'rinlarda kitobning qismi va sahifasi ko'rsatiladi).
8. Жо Мин Ёнг. Ўзбек ва корейс тилларида ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2022. – Б. 17.
9. Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокултурологик хусусиятлари: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 75.
10. Alefirenko N.F. Kinguocultural nature of mentality // Язык. Словесност. Культура. 1/2011. – С. 16.
11. Усманов Ф.Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 50.
12. Xabibillayev, N. (2024). IZOFALI BIRIKMALARNING TARKIBGA AJRATILISHI BORASIDAGI QARASHLAR VA ULARNING AYRIMLARI TAHLILI (2-QISM). *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения*, 3(9), 18-20.
13. Xabibillayev, N. (2024). IZOFALI BIRIKMALARNING TARKIBGA AJRATILISHI BORASIDAGI QARASHLAR VA ULARNING AYRIMLARI TAHLILI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 3(11), 79-80.
14. Xabibillayev, N. (2024). HOZIRGI O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA RAVISH MASALASI (1-qism). *Молодые ученые*, 2(22), 17-22.
15. Xabibillayev, N. (2024). AZIM HOJIYEVNING MORFEMA BORASIDAGI QARASHLARI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 3(8), 21-26.
16. Habibullayev, N. N. O. G. L., & QOZOQ, V. O. Z. T. M. (2023). SO'ZLAR CHOG'ISHTIRMASI.

17. Xabibillayev, N. (2024). Mumtoz Adabiyotni Targ ‘Ib Etishda Adabiy Moslashtirishning Ahamiyati (—Lison Ut-Tayrl Ning Moslashtirilgan Matni Misolida). *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 16, 65-71.
18. DILMUROD, A., & SHOIRA, B. (2025). FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI (“Alpomish” dostoni asosida). *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(6), 191-199.
19. Iskandarova, S., Kuziyev, U., Ashurov, D., & Rakhmatullayeva, D. (2024, November). Advancing Natural Language Processing: Beyond Embeddings. In *2024 International Conference on IoT, Communication and Automation Technology (ICICAT)* (pp. 792-796). IEEE.
20. Ashurov, D. A. (2019). THE LINGVOCULTURAL CHARACTERICS OF COLOR COMPONENT PHRASEOLOGIES IN THE VERSION OF “ALPOMISH” EPIC. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 279-282.
21. Mengliev, D., Nabiyeva, D., Abdurakhmonov, A., Makhmudov, K., Nuritdinov, A., & Otemisov, A. (2025, June). Educational Text Analysis in Uzbek: Developing an NER Algorithm for Academic and Pedagogical Content. In *2025 IEEE 26th International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM)* (pp. 2100-2103). IEEE.
22. Nuritdinov, A. (2025). MATNLARNI LINGVOSTATISTIK TAHLIL QILISHDA KORPUS USULLARIDAN FOYDALANISH. *Молодые ученые*, 3(19), 93-97.
23. Nuritdinov, A. (2025). KONKORDANS–LINGVISTIK TAHLIL VOSITASI SIFATIDA. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 4(13), 173-178.
24. Nuritdinov, A. (2025). Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 3(5).
25. Nuritdinov, A. (2024). JADID DAVRI ADABIY MUHITIGA DOIR ASARLARDAN KORPUSDA FOYDALANISH. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
26. Nuritdinov, A. (2022). O ‘ZBEK TILI KORPUSI UCHUN ABDURAUF FITRATNING LINGVISTIK ASARLARINI MANBA SIFATIDA OLINISHI. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
27. Nuritdinov, A. S. O. G. L. (2022). O‘zbek tili milliy korpusi uchun jadid tilshunoslarining lingvistik asarlarini manba sifatida olinishi. *Science and Education*, 3(4), 2048-2057.